



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA  
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**  
*mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*  
*2025-yil, 12-13-noyabr*

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE  
PHILOLOGY AND TRANSLATION  
STUDIES”**  
*international scientific and practical conference*  
*November 12-13, 2025*



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA  
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami*

*2025-yil, 12-13-noyabr*

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

*Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled*

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY  
AND TRANSLATION STUDIES”**

*November 12-13, 2025*

Tashkent – 2025

**UO‘K 845.711.05**

**KBK 133.585.3** “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat SIROJIDDINOV**

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

**Tahrir hay’ati:**

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**UO‘K 845.711.05**

**KBK 133.585.3** Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic “Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

**Editor-in-Chief:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV**

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

**Editorial Board:**

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

*The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.*

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

**IJODIY KENGASHLARDA**  
**(2021 yil jahon adabiyoti jurnalida chop etilgan she’rlar tarjimasi xususida)**

*Shermurod Subhon,*  
*O‘zJOKU o‘qituvchisi*

Avvalo shuni aytib o‘tsak, biz bugungi ma’ruzamizda o‘z faoliyatini boshlaganiga chorak asr to‘lgan Jahon adabiyoti jurnalining 2021-yil sonlarida chop etilgan she’rlar xususida so‘z yuritar ekanmiz, mazkur tarjima namunalarini asliyat bilan solishtirib o‘tirmadik. Zero, bu ish tarjimashunoslik fanining ilmiy-amaliy tadqiqot ishi bo‘lib, muallifdan alohida akademik yondashuvni talab qiladi. Biz taqdim etilgan nazmiy tarjimalarning o‘zbek tili badiiyati va uslubiga qay darajada muvofiqligi, erishilgan yutuqu kamchiliklar, shakliy o‘ziga xosliklar hamda ularda ilgari surilgan g‘oyalarning mazmun-mohiyati haqidagi ba’zi qarashlarimizni bayon qilish bilan cheklandik.

“Men siz haqqingizda gapirar ekanman, ayni paytda o‘zimni tushuntirgan bo‘laman”, – deydi farang yozuvchisi Viktor Gyugo. Adib bunda xoh nazmda bo‘lsin, xoh nasrda bo‘lsin har qanday asarda ijodkorning voqelikka bo‘lgan munosabati o‘z aksini topishiga e‘tiborni qaratadi. Shu ma’noda tarjimon muayyan bir asar tarjimasiga qo‘l urarkan, avvalo, muallifning missiyasi – asarda ilgari surgan g‘oyani to‘g‘ri anglagan holda tarjima ishiga kirishmog‘i lozim. Qolaversa, bunday o‘ta mas’uliyatli vazifani ado etish tarjimondan, nafaqat xorijiy tilni mukammal bilishni, shu bilan birga, yuksak salohiyat, bilim, tajriba, so‘z boyligi-yu ijodiy mahorat talab etadi.

2021-yilning 1-soni “She’riyat mintaqalari” rukni rusiyzabon shoir vatandoshimiz Nikolay Ilining turkum she’rlari bilan boshlanadi. Mazkur she’rlarni taniqli shoira Farida Afro‘z hamda shoir Davron Rajab o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Tarjimonlarimizning o‘ziga xos uslubiy hamda individual mahoratidan kelib chiqib aytganda, shoirning barmoq vaznidagi she’rlari Farida Afro‘z tarjimasida, sarbast she’rlar, uchliklar esa Davron Rajab tarjimasida maromiga yetkazilgan.

Shoir tabiat manzaralarini aks ettirarkan, har bir faslning o‘ziga xos tarovatidan kelib chiqib, she’rga ijtimoiy mazmun yuklaydi. Jumladan, she’rlardan birida saratonda “durkun yaproqlar ortiga yashiringan yoz” tasviri:

*Quyosh tinmay purkaydi olov,*  
*Hech kim bilmas sababini ham.*  
*Esda qolar biror isyon yo‘q,*  
*Osmon esa sokin, xotirjam...*

deya mubham – jumboqli ko‘rinish oladi. Boshqacha aytganda oddiy ko‘ringan kichik bir detalga katta ijtimoiy ma’no yuklanadi.

Tag‘in bir she’rda vaqt xazon yanglig‘ sarg‘ayib, yaproqlarning rangi xira tortadi. Bog‘da kumush qirov inib, maysalarning sochi oqaradi. Xazonrezgi bog‘ oralab kezgan shoir ruhiyatida ana shunday mahzun kayfiyat hukmronlik qilarkan, shoir qalamidan beixtiyor:

*Kuz, qahringga chidab bo‘lmaydi,*  
*Nayza sanchar olam quyoshi.*  
*Barglar uchar noiloj, nochor,*  
*Uyqusirab aylanan boshi.*  
*Oh yurakning yetmas bardoshi...*

kabi satrlar qog‘ozga to‘kiladi.

Shoir deyarli har bir she‘rida olam va odam o‘rtasidagi mutanosiblikka e‘tiborni qaratib, o‘tkinchi umrning har lahzasi aslida omonat ekanligiga ishora qiladi. Inson o‘z oldiga ezgu maqsadlar qo‘ydimi, demak asosiy masala unga erishishdir. Aks holda:

*Tadir berdi bizga imkon, shijoat,  
Yozini bajardik, bajarolmadik.  
Qara quyosh nurlarin turibdi tarab,  
Biz esa shamdek ham yona olmadik.*

deya nadomatlar chekishi tayin.

Mazkur she‘rlarning o‘zbek tilida asliyatdagidek jaranglashida shoir hamda tarjimonning ijodiy kredosi – har ikki shoirning she‘riyatdagi malsafiy mushohadakorlikka yo‘g‘rilgan o‘zaro uslubiy yaqinligi qo‘l kelgan deyish mumkin.

Shoirning Davron Rajab tarjimasidagi sərbast she‘rlarida ham tabiat manzaralariga murojaat davom ettiriladi. Shoir ko‘ngil nolalariyu chekkan nadomatlarini yashirib o‘tirmay, boricha qalamga oladi. Satrlarga ko‘chgan e‘tiroflar:

*Mehr berdi menga kuzgi bog‘:  
aylandim  
men ham xazon fasliga...*

ko‘rinishini oladi:

Aslida bu satrlar she‘r kuliminatsiyasini tashkil etadi. She‘rning matla‘si esa, yanada chuqur dramatism bilan sug‘orilgan. Bog‘da “sukunat yangrar”kan shoir sevgilisiga qarata:

*tingladim,  
uchib tushganin kipriklaring.*

deydi.

Har bir millatning maqol, matal, ertaku doston kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari yoshlarning komil inson bo‘lib ulg‘ayishlarida muhim ahamiyatga ega ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Jurnalning 2-sonida taniqli shoir va tarjimon Karim Bahriyevning mashhur amerikalik shoir, bastakor, xonanda va rassom Shel Silverstaning bolalarga atab yozgan, aslida kattalarga xos chuqur falsafiy-didaktik mohiyatga ega qochirim, yumor bilan sug‘orilgan ijod namunalari tarjimasi o‘rin olgan.

“Nabira va Bobo” nomli ilk she‘rda G‘arb madaniyatidagi odatiy hol – inson ulg‘ayib keksayganda e‘tibordan chetda qolishi qalamga olinadi. Shoir odam keksayganda bolaga o‘xshab parishonxotir bo‘lishi, xatti-harakatlarini nazorat qilishi tobora qiyinlashib borishi, eng achinarlisi, oxir-oqibat e‘tibordan chetda qolishini she‘r so‘ngida nevaraning “Meni eslashmaydi, e‘tibor ham yo‘q” deya yozinqirashiga boboning “Bilaman...” deb afsus-nadomat chekishi orqali kinoya ostiga oladi.

Nazarimda shoir bunday salbiy oqibatlarining tub sababi bolalarning mehr ko‘rmay ulg‘ayishlarida ekanligini keyingi “Ayting menga” she‘ri orqali uqtirgandek bo‘ladi. Bolaning har bir

xatti-harakati ota-ona nazorati ostida bo‘lishi kerakligi, ijobiy yutuqlari o‘z paytida olqishlanishi, kerak bo‘lsa, rag‘batlantirilishi lozimligi quyidagi satrlarda o‘z tasdig‘ini topadi:

*So‘zlang hisli, shafiq ekanim,  
Ayting menda bor nazokatni.  
So‘zlang to‘kis, barkamolligim,  
Ayting, axir, bor haqiqatni!*

Xalq orasida “Illat izlaganga illatdir dunyo” degan naql bor. Shoirning “Mijg‘ov dilgirning xirgoyisi” she‘rida badbin, har narsadan kir qidiradigan, ziqna insonning o‘yu fikrlari, dunyoqarashi kinoyaga tortiladi. She‘rning yanada ishonchli va ta‘sirli bo‘lishi uchun muallif monologdan keng foydalangan.

*Bu dunyoda bari g‘alati,  
Barcha – ablah, hamma – yaramas!  
Tunlar o‘ta zerikarlidir,  
Kunduz nurga ko‘zing chidamas...*

Eng achinarlisi shuki, bunday insonlar yaxshidan ibrat olish o‘rniga o‘zlarining adashganlarini ham bilmay, dunyoga hasad bilan boqishda davom etadilar. Ularning olam va odam omili borasidagi xulosalari:

*Achinaman, ular – sarmastlar –  
Dunyo g‘alatiligin bilmaslar...*

Shoirning bolalarga atab yozgan “Vujud suhbatlari”, “G‘alati qushcha” she‘rida yuqorida aytib o‘tilganidek, manmanlik, maqtanchoqlik qoralanib kamtarlik oqlansa, kattalarga xos “Mening qoidalarim” “Aytolmaganlarim” ishq-muhabbat mavzusidagi she‘rlarda “Avval o‘yla, keyin so‘yla” hamda “So‘nggi pushaymon o‘zingga dushman” qabilidagi hayotiy haqiqatlar qalamga olinadi. “Savdoyi tush” she‘rida esa ta‘lim tizimida o‘quvchilar ko‘nikkan quruq yod olish – sxolastik holat tush misolida tanqid ostiga olinadi.

O‘qituvchilarning “Yuza kitobni bir kunda yodlashni” hamda “bir kecha va yana bir tunda Magnoliya ekib o‘stirish” kabi g‘ayritabiiy topshiriqlar berishlari, buning ustiga, aksi taqdirda “ikki” qo‘yaman deb quloq cho‘zishlari keskin qoralanadi.

Jurnalning mart soni “She‘riyat mintaqalari” ruknidan Sharq dunyosining buyuk mutasavvuf allomasi, mutafakkir adib Jaloliddin Rumiyning shoir Odil Ikrom tomonidan amalga oshirilgan “Ma‘naviy masnaviy” dostoni hikoyatlari tarjima namunalari joy olgan. Ma‘lumki, mazkur kulliyotning o‘zbek tiliga tarjimasiga, dastlab, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol, so‘ngra shoir Asqar Mahkam qo‘l urishgan. Jurnalxonlar e‘tiboriga havola qilingan uchinchi tarjima ham yuqoridagi mohir tarjimonlarimizni sira takrorlamagan holda maromiga yetkazilgan. Har uchala tarjimonning asliyatdagi “Bishnav az nay chun hikoyat mekunad, Az judoyiho shikoyat mekunad” deb boshlanuvchi asar debochasi tarjimlarini solishtirganimizda bunga yana bir bor amin bo‘lamiz. Jamol Kamol tarjimasida ushbu shoh bayt “Tingla naydin chun hikoyat aylagay, Ayriliqlardin shikoyat aylagay” tarzida ko‘rinish olgan bo‘lsa, Asqar Mahkam buni “Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay, Ayriliqlardan shikoyat aylagay” deya tarjima qilishni ma‘qul ko‘radi. Odil Ikrom o‘girmasida ushbu matla’ “Tingla, bul nay ne shikoyat aylagay, Ayriliqlardin hikoyat aylagay” holida

taqdim etiladi. Ma’lum bo’ladiki, Jamol Kamol hamda Asqar Mahkam tarjimasidagi baytning birinchi satridagi “hikoyat” so’zi ikkinchi satrda shikoyat so’zi bilan qofiyalangan. Odil Ikrom tarjimasida esa, aksincha, “shikoyat” so’ziga “hikoyat” qofiya keltirilgan. Odil Ikrom buni shunday izohlaydi: “Ma’naviy masnaviy”ning Qo’niyo nusxasida birinchi satrdagi “hikoyat” so’zi “shikoyat”, ikkinchi satrdagi “shikoyat” so’zi “hikoyat” tarzida berilgan”.

Ma’lum bo’ladiki, tarjimonlar o’zlarining bor shoirlik iste’dodlari, boy hayotiy tajribalari hamda uslubiy o’ziga xosliklaridan kelib chiqib, ushbu mas’uliyatli, ayni paytda, nihoyatda sharafli ishga qo’l urganlar.

Biz ushbu ma’ruzamizda butun insoniyatga “qissadan hissa” qabilida taqdim etilgan, qolaversa, tasavvufiy ma’no injulari bilan to’lib-toshgan “Ma’naviyi masnaviy” kulliyotini keng sharhlashdan yiroqmiz. Qolaversa, bu ish muallifdan alohida bilim va yondashuvni talab qiladi. Shu ma’noda jurnalning 2021-yilning mart, aprel sonlari “She’riyat iqlimi” rukni ostida mazkur devonning 1-2-3 hamda 5-kitoblaridan tanlab chop etilgan maqolotlar tarjimasida asosan diniy hamda dunyoviy mohiyatga ega axloq-odob, pand-nasihath injulari joy olganini aytib o’tish bilan kifoyalanamiz.

2021 yilda chop etilgan Jahon adabiyoti jurnalining qator sonlarida nafaqat she’r tarjimalari, balki taniqli shoirlarning she’riyatiga asos bo’lgan muhim hayotiy voqealilar ham o’rin olgan. “Shoir arxividan” rukni ostida e’lon qilingan “Shoirning tug’ilishi”, “Yig’lar”, “Taqdir” va “Yillar va burgut” kabi she’rlar O’zbekiston xalq qahramoni, taniqli shoir Abdulla Oripovning she’riyatga kirib kelishi haqida, yanada to’g’rirog’i hali ko’pchilikka ma’lum bo’lmagan qiziq ma’lumotlarga boyligi bilan o’quvchi e’tiborini tortadi.

Darhaqiqat, mazkur she’rlar yosh shoirning o’zligini topish yo’lidagi dastlabki sa’y-harakatlarida ustoz shoir Hamid Olimjon hamda qator mumtoz adiblarning alohida o’rni borligidan darak beradi. Buni uning o’zini goh barmoq vaznida, goh aruz vaznida sinab ko’rib yozgan quyidagi she’rlari misolida ham ko’rish mumkin:

*Men ham tunlar daryo bo’yida,  
Ha, samoviy o’ylar surardim.  
Har to’lqinda, inson qalbinmas,  
Faqat moviylikni ko’rardim.*

Ushbu satrlar beixtiyor Hamid Olimjonning “Xayolimda bo’lding uzun kun” she’ridagi:

*Xayolimda bo’lding uzun kun,  
Seni izlab qirg’oqqa bordim.  
Och to’lqinlar pishqirgan tunda  
Topib ber, deb oyga yolvordim...*

satrlarini yodga solsa ajab emas.

Shuningdek, yosh shoirning ayni she’ridan o’rin olgan:

*Go’zal edi ko’zimga bari,  
Mavzu edi so’zimga bari*

bayti ham shodlik kuychisi ustoz shoirning

*Vodiylarni yayov kezganda*

*Bir ajib his bor edi menda, –*

deya boshlanuvchi “O‘zbekiston” she’ri satrlariga nafaqat mazmunan, balki shaklan ham yaqinligini namoyon etadi. Qolaversa, bizning ushbu fikrimizni yosh shoirning shu va “Yillar va burgut” deb nom olgan she’ri doston janrida bitilgani ham tasdiqlaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘tgan asrning 50-yillar oxiri, 60-yillar boshi shoir ijodining taqlid bosqichiga to‘g‘ri kelgan davrlarda yozilgan she’rlarda fikrlar tarqoq ifodalangani uchun voqealar yaxlit syujet asosiga qurilmaganini ko‘rsatadi.

O‘rni kelgan ekan, shuni ham aytib o‘tsak, Hamid Olimjon she’riyatini lirizimidan olingan saboq, keyinchalik iste’dodli yosh shoirning she’riyatda o‘z ovozi topib, ishq, sevgi bobidagi “Birinchi muhabbatim” shoh asaridan joy olgan:

*Kecha oqshom falakda,  
Oy bo‘zarib botganda,  
Zuhro yulduz miltirab,  
Xira xanda otganda,  
Men seni esga oldim  
Birinchi muhabbatim,  
Eslab xayolga toldim  
Birinchi muhabbatim, –*

kabi satrlarning bitilishida turtki bo‘lgan bo‘lsa, ne ajab.

Iste’dodli yosh shoirning xuddi shu davrda Aleksand Pushkin hamda G.Geyne kabi she’riyat darg‘alari asarlari tarjimasiga qo‘l urishi she’riyatda yuksak cho‘qqilarni ko‘zlaganidan darak beradi. Uning ko‘p o‘tmay chop etilgan dastlabki “Mitti yulduz” jajji she’riy to‘plamidan tortib to salmoqli tus solgan “Yillar armoni” to‘plamigacha bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘lini ko‘z oldimizga keltirsak, uning o‘sha damdagi niyati naqadar xolis bo‘lganini ko‘ramiz. Boshqacha aytganda, keyinchalik milliy she’riyatimizni yuksak cho‘qqilarga olib chiqib o‘ziga xos maktab yaratgan, shuningdek, miliy madhiyamizning muallifi sifatida ham o‘zbek nomini butun dunyoga tanitgan daho adib “O‘zbekiston” she’rida Ona Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatini:

*Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,  
Qiyosingni topmadim aslo.  
Shoirlar bor, o‘z yurtin butun –  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq,  
Qanotida kumush diyori,  
Bir o‘lka bor dunyoda biroq,  
Yozilmagan dostonidir bori:  
Faqat ojiz qalamim manim  
O‘zbekiston Vatanim manim...*

deya faxr-iftixor bilan tilga oladi.

*She’ning zo‘ri to‘rt satr  
To‘rt satr a‘lo satr  
Shoir odam o‘zini*

*To‘rt satrda ko‘rsatir*

deydi O‘zbekiston Qahramoni, hassos shoir Erkin Vohidov. Darhaqiqat, mumtoz shiorlarimiz, bir tomondan, his-tuyg‘ularini ifodalashda, asosan, g‘azal janriga murojaat qilgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, ijtimoiy mavzudagi qarashlari – tushuncha yoxud fikr-mulohazalarini aks ettirishda ko‘proq ruboiy, tuyuqlardan keng foydalanganlar. Chunki mazkur janrlarda fikrni yanada ixcham, yanada ta’sirliroq yetkazish imkoniyati katta bo‘ladi. Bunga Sharqning buyuk mutafakkir adiblari Mirzo Bedil, Umar Xayyom, qolaversa, shu o‘yning to‘qqizinchi va o‘n to‘rtinchi fevral kunlari yubileylari keng nishonlangan Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylarini misol keltirib o‘tish mumkin.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, bugungi kunda to‘rtliklar deganda a a b a tarzida qofiyalanuvchi ruboiy yoxud tuyuqlar emas, balki a b a b ko‘rinishidagi to‘rtliklar inobatga olinadi.

“Jahon adabiyoti”ning 2021-yil may soni She’riyat mintaqalari rukni ostida rusiyzabon vatandoshimiz shoir, tarjimon, publitsist Sobit Madaliyevning 74 nafar to‘rtliklari tarjimasi joy olgan. Tarjimalarni shoir Shukur Qurbon amalga oshirgan. Sobit Madaliyev Jambulda tug‘ilib, Toshkentda ulg‘aygan bo‘lsa-da, uzoq yillar Moskvada yashagan. Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot institutini tugatgach, ma’lum davrlarda nashriyotlarda faoliyat yuritgan. 1990-yilda O‘zbekistonga qaytgach, 1991–1996-yillar davomida “Звезда Востока” jurnalining bosh muharriri vazifasida ishlagan. Xuddi shu davrda shiorning “Ruboiylar” to‘plami chop etiladi. (Xalqaro Yevraziya akademiyasi a’zosi Sobit Madaliyev hozirda Toshkentda yashaydi.)

Shoirning tarjimayi holidan ma’lum bo‘ladiki, uzoq yillar o‘zga yurtlarda musofirchilikda yashab boy hayotiy tajriba ortirgan adib, ko‘rgan bilganlarini qog‘ozga to‘kkan va keyinchalik ularni she’riy to‘plamlarida chop ettirgan. Jahon adabiyotida chop etilgan ruboiylar ham ana shunday boy hayotiy tajriba yolqinlari desak xato bo‘lmaydi. Quyidagi ruboiy bunga misoldir:

*Afg‘on shamolida telba Majnunday  
Izg‘idim va bildim dunyoi dunda  
Axtarsang qancha ko‘p ma’no, shuncha ko‘p  
Ma’nosizlik ko‘rar ekansan unda.*

Hayotda ko‘plab nohaqlik, adolatsizliklarga guvoh bo‘lgan shoirning haq va haqiqat borasidagi xulasasi shunday:

*Ovozim dafn etdim, qabrtosh bo‘lib,  
Turdim tepasida sukutga to‘lib.  
Haq so‘zda chiroy yo‘q, chiroyli so‘zdan  
Esa haqiqatlar ketar bosh olib.*

Taqdim etilgan ruboiylarning barchasini risoladagidek o‘girilgan deb bo‘lmaydi. Tarjimon ba’zan e’tiborni ko‘proq shaklga qaratgani tufayli mazmundan chalg‘igan o‘rinlar ham yo‘q emas. Misol uchun quyidagi to‘rtlikka ko‘z tashlaylik:

*Koinot to‘riga ilingan zamon  
Arqog‘i ichinda sen ham bor, nodon.  
Bir umr qobig‘ing ichra o‘ralib,  
Chetda abadiyatdan qolding begumon.*

Bizningcha, soʻnggi satr tarjimasi “Chetda abadiyatdan qolding begumon” oʻrniga “Abadiyatdan chetda qolding begumon” tarzida aks ettirilganda, shakl va mazmun mutanosibligiga erishilgan hamda sheʼrning ohangdorligiyu taʼsir kuchi yanada ortgan boʻlardi.

Jurnalning 6-sonida Sharq adabiyotida “shoiri abulmaoniy” – maʼnolar otasi deb yuksak eʼtirof etilgan Mirzo Abdulqodir Bedilning 30 yillik ijodiy mehnati samarasi boʻlmish “Irfon” shoh asaridan namuna chop etilgan.

Maʼlumki, sharq adabiyotida sohir ruboiynavis sifatida keng shuhrat qozongan Mirzo Bedilning ruboiylari, dastlab, Shoislom Shomammedov tomonidan fors tilidan oʻzbek tiliga barmoq vaznida tarjima qilingan boʻlib, 1974-yilda Gʻafur Gʻulom nashriyoti tomonidan «Ruboiylar» nomi ostida chop etilgan.

Oʻzbekiston xalq shoiri Jamol Kamolning 1991-yilda “Nur” nashriyotida nashr etilgan “333 ruboiy” deb nomlangan Sharq sheʼriyatidan qilgan tarjimalar toʻplamida Ibn Sino, Umar Hayyom, Najmiddin Kubro, Jalliddin Rumiy, Xisrav Dehlaviy kabi mumtoz shoirlar qatorida Mirzo Bedilning 30 dan ortiq ruboiylari asliyatga amal qilingan holda, aruz vaznida tarjima qilingan. Shuningdek, adabiyotshunos olim Ergash Ochilovning 2011-yilda “Oʻzbekiston” nashriyotida chop etilgan “Hayrat oynasi” toʻplamida Mirzo Bedilning 200 nafar ruboiysi aruz vaznida chop etilganini koʻramiz.

Jurnalning mazkur sonida Sharq adabiyotining nodir asarlari tarjimoni sifatida nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham keng shuhrat qozongan Oʻzbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan amalga oshirilgan Mirzo Bedilning ikki kitobdan iborat “Irfon” dostoni tarjimasidan parcha havola qilingan. “Komde va Mudan” deb nomlangan mazkur dostonda shoir ikki yoshning ishq-muhabbat yoʻlida chekan azobu uqubatlari misolida ideal jamiyat haqidagi qarashlarini ilgari suradi. Adolat, haqiqat asosida hukm yuritilgan mamlakat qudratli boʻlib, ichki, aysh-ishrat, razolatga botgan oʻlka ustidan gʻalaba qozonishi turli ramz va ishoralar orqali bayon etiladi.

Shoir bir oʻrinda:

*Bazmi may bahri toʻfondir, bas,  
Aqlu hushdin oʻzgasi gʻarq emas...  
deya oʻgit barsa, boshqa oʻrinda:  
Ayshu tarab aylar esa kishi,  
Oqibat yigʻi boʻlgay ishi, –*

deya hushyorlikka chorlaydi. Qissadan hissa – asar parchasi kuliminatsiyasini gʻolib mamlakat shohining:

*Yetmasam mazlum dodiga hamon,  
Hayf menga bu shohlik, shavkat-u shon...*

deya beliga mardlik, jasorat kamarini bogʻlashi aks ettirilgan bayt tashkil etadi.

Jurnalning 7-sonida latish millatiga mansub shoir Oyar Vatsiyetisning “Soʻzga aylanmagan munojot” nomi ostida shoir Salim Ashur tomonidan rus tilidan oʻgirilgan bir turkum sheʼrlari eʼlon qilingan.

Odatda, oʻquvchi sheʼrlarni oʻqishdan oldin, muallif qaysi millatga mansub ekanligiga hamda qanday asarlari nashr qilinganiga eʼtiborni qaratadi. Biroq jurnalning bu galgi sonida “Sheʼriyat

mintaqalari” rukni ostida chop etilgan she’rlar muallifi Oyar Vatsiyetisning negadir tug‘ilgan va vafot etgan sanasidan boshqa hech qanday ma’lumot berilmagan.

Ma’lumki, sobiq sho’ro tuzumi hali ayni avjida bo‘lgan pallalardayoq, Boltiq bo‘yi mamlakatlari shoirlari “sotsialistik realizm” deb atalmish soxta utopik adabiy ta’limot qobig‘ini yorib chiqib, shaklda ham, mazmunda ham katta evrilishlar yasaganlari sir emas. Bunda g‘arb adabiyotining ilg‘or adabiy oqim va tendensiyalarini juda yaxshi o‘zlashtirgan mazkur hudud adiblarining hissasi borligini inkor etib bo‘lmaydi. Ularning bu ishga erta kirishishlarida Boltiq bo‘yi davlatlarining g‘arb mamlakatlari bilan jug‘rofiy jihatdan juda yaqin ekanliklarini ham unutmaslik kerak.

Barmoq vaznining qat’iy qoida talabi bo‘lmish satrlararo hijolar soni va qofiya uyg‘unligidan farqli o‘laroq, sarbast she’r – shuurosti tuyg‘u va tushunchalar o‘rtasidagi mutanosiblik, kundalik nutq, ramziy ishoralar, so‘z uyinlari, alliteratsiya, qaytariq kabi turli badiiy vositalardan keng foydalangan holda, fikrni erkin ifodalash imkonini beradi.

Shoir tong manzarasini chizarkan, o‘quvchining yuksak tafakkur tarzi, improvizatorlik mahoratini e’tiborga olib, shuurida aks etgan holatni quyidagicha qalamga oladi:

*Bong...*

*va uyg‘ondim men –*

*zarang daraxtining uchida,*

*titrab turgan*

*yolg‘iz yaproqqa*

*qahraboning sinig‘i bilan*

*naqshlangan ong:*

*tong!*

Tarjimonning asl maqsadi xoh nasrda bo‘lsin, xoh nazmda bo‘lsin muallif yetkazmoqchi bo‘lgan fikr yoxud tuyg‘uni imkon qadar asliyatdagidek aks ettirishdir. Buning uchun u muallifning o‘ziga xos uslubi, badiiy mahorati asarda qay yo‘sinda amalga oshgani haqida o‘quvchiga yetarlicha taassurot uyg‘ota olishi lozim.

Tarjimon sarbast she’rning o‘ziga xos badiiy jozibadorligiga e’tiborni qaratarkan, ba’zan kundalik nutqdan o‘rinsiz foydalanganini ko‘ramiz. Misol uchun “Asal gulini izlab” deb nomlangan dastlabki she’rda shoir o‘rmon chekkasida o‘zi yoqtirgan gulga duch kelib, hayratga tushganini:

*Va ko‘ring – zo‘r mo‘jizani!*

*hayot qaytdi!*

*Olam yana ko‘m-ko‘k – istasang kuyla! –*

*sochib menga tirik suvlarni...*

kabi satrlar orqali ifodalashga tutinadi. Ma’lum bo‘lganidek, shoir “ko‘ring” xitobi orqali ko‘pga murojaat qilmoqda. Keyingi satrda esa kuylash istagini hayotga qo‘yib bermoqda. Birinchisida umumga, ikkinchisida obyektga murojaat bor. Biroq ne ajabki, she’rning davomida ham umumga murojaat qilingan bo‘lishiga qaramay, tarjimon 3 shaxs ko‘plik “lar” qo‘shimchasini ikki bor o‘rinsiz qo‘llab, she’rning ohangdorligiyu jozibadorligiga putur yetkazgan:

*Asalgulni izlarkansizlar,  
rezgi gullardan yuz burmanglar:  
eng yashnagan, viqor to'kkan gullarda,  
rosti,  
pinhon bo'ladi  
shirin og'u.*

Boshqa bir she'rda shoir ko'zi ojizlar ko'cha-ko'yda behudaga tentirab yurmasliklariga va ular imkon qadar vaqtning qadriga yetishga harakat qilishlariga ishora qilib:

*Yo'l ko'rsatuvchi izlayapman,  
Yaxshisi, so'qir odamni,  
Ko'zi ojizlar hech qachon  
Behudaga izg'ib yurmaydi...*

deya xotima yasaydi. Ma'lum bo'ladiki, tarjimon ikkinchi satrda “To'g'risi” so'zi o'rniga “Yaxshisi” so'zini qo'llangan. Natijada satrlararo mantiqan bog'lanmagan g'aliz fikr o'rta qatnash chiqishiga sabab bo'lgan. Tarjimon tomonidan so'z qo'llashda yo'l qo'yilgan bunga o'xshash bahstlab o'rnlarni “Mening uch xotiram”, “Shivitzorda” nomli hamda “Qish!” va “Ochilayotgan atirgulning” deya boshlanuvchi she'rlar misolida ham ko'rish mumkin.

Jurnalning avgust sonida Marina Svetayevaning Oygul Suyundiqova o'g'irgan “Sog'inchlar soldo qalbinga otash” nomi ostida qator she'rlari berilgan. Mazkur she'rlar qaysi bir ma'noda o'quvchiga shoirning hayoti va ijodiga daxldor muhim nuqtalar bilan birga, o'zi yashagan davrning suronli damlari haqida ham yetarlicha ma'lumot beradi. Shoir she'rlaridan birida yashash uchun kurash tobora tahlikali tus olgan kunlarda xayolidan kechgan o'ylarni qog'ozga to'karkan, “Tez orada meni chorlasa yiroq” deb turib, ertangi kun haqidagi andishalarini:

*Feruzarang kumush bilaguzugim,  
Kimning nasibasi... Jami yozuvim,  
Gullarni asrashga toqat qilar kim...  
Eng so'nggi qofiyam – eng so'nggi tunim!*

deya arzi-hol qiladi. She'r davomida ma'lum bo'ladiki, shoir bir daqiqa bo'lsa-da o'zini ijoddan ayri tasavvur etolmaydi. Hayot deb atalmish ulkan qozonda qanchalar qaynab qovrulmasin, Vatanga bo'lgan muhabbat barcha azob-uqubatlarni yengib o'tishda, qalqon bo'lib oldinga chorlaydi.

“Qalb va ism” she'rida shoir ona tabiatga bo'lgan sevgisini;

*Davra olovlanar, bu o't taftidan,  
Isiyin demaydi, to'lmaydi bag'rim.  
Ko'zimda yastanib yotadi kenglik,  
Sen uni dengiz deb atagil, Tangrim!*

deya talqin qiladi. “Vatan” haqidagi she'rida esa, “Dunyoning bir cheti kengliklar, Shu kengliklar – diyorim mening!” deb turib, keyingi satrda buni yanada yorqinroq izohlashga kirishadi:

*Bu kengliklar – tug'ma dard kabi,*

*Qancha Vatan – shuncha taqdir.*  
*Shu kengliklar bo‘ylab barini*  
*Men ko‘tarib o‘taman bir-bir!*

O‘rni kelganda shuni ham aytib o‘tsak: tarjimon yuqoridagi to‘rtlikda “taqdir” so‘ziga “bir-bir” takror so‘zni qofiya keltiradi. Natijada qofiya to‘liq bo‘lmay, bu kamchilik talaffuzda ham o‘z aksini topadi. Bizningcha ikkinchi satr “Qancha Vatan – shunchalar taqdir” deb o‘girilganda, shoirning maqsadiyu tarjimonning mahorati yanada aniqroq ko‘zga tashlangan bo‘lardi.

Marina Svetayevaning “Sog‘inchlar soldi qalbinga otash” nomi ostida havola etilgan mazkur turkum she‘rlari qatorida ayni paytda o‘ziga yaqin olgan qismatdosh shoir do‘stlari Blok hamda Anna Axmatovaga bag‘ishlagan ijod namunalari ham o‘rin olgan. Shoir “Anna Axmatovaga” she‘rida qalbini o‘rtagan sog‘inchu qismatida bitilganlardan tuygan “taskin” – quvonchlarini shunday izhor etadi:

*Boshdagi tojimiz – tuprog‘imiz bir,*  
*Osmonimiz bita – bosh uzra omon.*  
*Yo‘llaring – olisdir, beomon taqdir,*  
*Unga kim fidodir – tirikdir hamon.*

Jurnalning sentyabr sonida “Qirg‘iz she‘riyatidan” nomi ostida Qirg‘iziston xalq shoiri Xo‘jakeldi Qultegin, Qiyal Tojiyeva, Tinchtiq Nurmanbetov kabi shoirlarning ijodidan namunalar berilgan. She‘rlar garchi hazil-mutoyiba asosida bitilgan bo‘lsa-da, biroq ularda ilgari surilgan g‘oya urf-odatlar, an‘analar kabi milliy qadritlarga e‘tiborni qaratgan holda, bugungi kunning muhim ijtimoiy masalalariga befarq bo‘lmaslikdir. Shu ma‘noda, har uchala shoir she‘rlari shakl va mazmunan xalq og‘zaki ijodidan suv ichgani yaqqol sezilib turadi. Aytish mumkinki, qirg‘iz xalq og‘zaki ijodi qator turkiy xalqlar, ayniqsa, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi bilan mushtarak bayon va talqin usuliga ega bo‘lgani bois, tarjimonlar Tohir Qahhor, Rustam Musurmon, Muzaffar Ahmedovlarga uncha qiyinchilik tug‘dirmagan. Buni har uchchala shoir she‘rlari tarjimalarining asliyatdagidek ravon o‘qilishidan ham bilsa bo‘ladi. Vatanparvarlik, milliy ruh ufurib turgan “Quchoq” she‘ri quyidagicha ko‘rinishga ega:

*Bir-birini suyib qirg‘iz qir oshgan,*  
*Ittiqoflik qursa, ishi yurishgan;*  
*Kurashsa ham bir-birini yengay deb,*  
*Bel olishib, quchoqlashib kurashgan (Tohir Qahhor tarjimasi).*

O‘z xalqining vijdoni bo‘lmish shoir “Qirg‘iz tili” she‘rida bugungi kunda milliy tilga bo‘lgan e‘tibor haminqadar ekanligidan yozinqirab, “Nechun qisq tili qirg‘iz enaning?” degan savolni o‘rtaga qo‘yadi. Azaldan “Tomiri ne davronlarga tutash” ekanligini juda yaxshi bilgan shoir alam o‘tida yonib, “Tilni biling, saqlang ona tilini, Hatto tog‘lar tik turar shu til bois” deya she‘rning davomida javobni ham o‘zi beradi. Shoir qalbini o‘rtagan dard she‘r so‘ngida shunday xotima topadi:

*Yal-yal yongan olov, yalov til degan.*  
*Yongan o‘tda, tilda bo‘lmas kir degan.*  
*Qirg‘iz tilin mozori u, mozori –*  
*Qirg‘iz bo‘lib, qirg‘iz tilin bilmagan!*

“O‘lkaning suluvlari” she’rida shoir xalq og‘zaki ijodiga xos jonli tildan keng foydalanganiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz:

*Bayroqday safda qizlar,  
Rom etmaydi kimni-da!  
Taqillagan taqalar  
Tinch o‘lkaning gimni-da!*

